

**O‘ZBEKISTON AMALIY SAN’ATIDA XIVA NAQQOSHLIK
SAN’ATINING O‘RNI**

UrDPI san’atshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi

Baltayeva Halima To‘rabayevna

baltayevaxalima@gmail.com

UrDPI san’atshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi

Otaxanova Nodira Jumanazarovna

nodiraotaxonova1@gmail.com

Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi 2-bosqichi talabasi

Soburova Dinora Muzaffar qizi

soburovadinora6@gmail.com

Annotatsiya: maqolada Xiva naqqoshlik san’atining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, Xiva naqqoshlik maktabining boshqa naqqoshlik maktablaridan farqi va Xiva naqqoshlik san’ati uslubidagi naqsh kompozitsiyalar haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: islamiy naqsh, kolorit, mehrob, bog‘lam, madoxil, kompozitsiya.

Xalq amaliy bezak san’ati turlari ichida naqshin badiiy bezak ishlash kasbi hisoblanadigan naqqoshlik san’ati alohida o‘rin egallaydi.

Naqqoshlik san’ati - avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan noyob san’at turi hisoblanadi. U asrlar o‘tishi bilan tobora sayqal topib, mukammallashib boradi, faqat uning qo‘llanilish o‘rni, vazifalari qisman o‘zgarishi, bezak unsurlari (elementlari) talqinida turli-tuman yangiliklar sodir bo‘lishi mumkin. Naqqoshlik san’atining asosini naqsh ya’ni ma’lum tartib va izchillikda joylashtirilib tuzilgan yaxlit bezak tashkil qiladi. Naqshlar asosan, o‘simlik dunyosi: novda, barg, gullar, mevalar, geometrik shakllar: uchburchak, to‘rtburchak, oltiburchak, aylana kabilar va hayvonlar tasvirini naqqoshlar tomonidan badiiylashtirib hosil qilingan bezakdir.

Naqsh xalq amaliy bezak san’atining barcha turlarida o‘yib, chizib, chok yordamida tikib, qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi.¹

Naqqoshlik san’ati tarixi insoniyat madaniyati bilan bir qatorda qadimiydir. Madaniyatning rivojlanishi natijasida rassomlik va naqqoshlik ajralib chiqadi hamda rivojlanadi. Har xil arxeologik qazilmalar shuni ko‘rsatadiki, naqqoshlik jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud ekanligi bizga ma’lum bo‘ladi. Chunonchi, Xitoyda, Qadimiy Eronda, Hindistonda va boshqa joylarda naqshning har xil turlarini

¹ Bulatov S.S. O‘zbekiston xalq amaliy bezak san’ati. -T: Mehnat, 1991

ko'rish mumkin. Naqqoshlik har bir davlatning o'ziga xos muhitiga: geografik o'rniga, o'lkaning o'simlik dunyosiga ko'ra rivoj topdi.

Masalan, arman va guruzinlarda uzum va uzum bargi, shimol xalqlarida archa va har xil hayvonlar, qirg'iz va qozoqlarda mol shoxi, tojiklar va o'zbek xalqlarining naqshlariga qarasak anor, bodom, gullar qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatiladiganligini ko'rasiz. Evropada barokko, gotika roman, klassistizm uslublari har xil davrlarda hukumron bo'ldi. Bu esa o'z-o'zidan naqqoshlik san'atining rivojlanishga ta'sir etadi. O'zbekiston territoriyasidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, So'g'd, Baqtiriya va boshqa viloyatlarda naqsh san'atining rivojlanganligi ma'lum. Olimlarimiz Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I–II asr), Dalvarzintepa (I asr) budda ibodatxonalarini qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari orqali isbotlab berganlar. Xorazmdagi Tuproqqal'a zallari monumental naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma'lum. VI–VII asrlarda ibodatxonalar, qasrlar va boylarning uylari o'yama naqshlar hamda tasvirlar bilan bezatilgan. Tantanali marosimlarga mo'ljallangan xonalardagi dabdabali ajoyib naqsh, rasmlarni ko'rib hayron bo'ladi kishi. Ularning birini qarasangiz devorlarda bazmi jamshid, ov, urush manzaralari hamda diniy rasmlar tasvirlangan. Jonli mahluqlar qizil va ko'k ranglar bilan bo'yab tasvirlangan. VII asrning oxiri VII asrning boshlarida o'rta Osiyoni arablar bosib olishi natijasida qaror topgan islom dini o'zidan oldingi madaniyatning ildiziga bolta urdi. Yangi din hamda yangi g'oya O'rta Osiyo tasviriy san'atiga ta'siri o'tkazadi. Jonli mavjudotlarni aks ettirish man etiladi. Islom talablariga bo'ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo'qolib borib naqqoshlik rivoj topadi. Arab yozuvi o'zlashtiriladi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'ladi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chiziladi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vasifasini bajaradi. Xullas tasviriy san'at rivojlanmaydi. Buning hisobiga esa xalq amaliy bezak san'ati ya'ni naqqoshlik san'ati hisobiga rivoj topdi. IX – X asrlarda O'rta Osiyoda naqqoshlik san'ati avj olib rivojlanadi. Arxitekturada g'isht qadab naqsh solish yuksak darajada rivojlanadi, binolarning ichki tomoniga ganch, yog'och o'yakorligini qo'llash yuksak rivoj topdi. Ayniqsa maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch – naqshlar bilan juda nafis bezatiladi. Naqshlar murakkablashib bordi. Ularning yangi nusxalarida rasm, tasvirlar, timsol, duo – afsunlar, tasbih va boshqalar naqadar mo'ligini ko'ramiz. Ramziy naqshlar dunyoda sodir bo'layotgan voqeliklar, tilaklarini aks ettirgan. Har bir chizilgan naqsh o'ziga xos ma'no bo'lgan. Chunonchi, o'simliksimon naqsh gulsapsarni olaylik, u osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, pechak islimiy naqshi -boylik va farovonlikni, novda va yaproqlar esa to'kinchilik hamda bahor chog'ida uyg'onishni bildiradi. Musavvirning tasvirlari bu uning ona tabiatga bo'lgan muhabbatini bildiradi. Uning ranglari o'ziga xos ma'no va harakaterga ega. Naqsh o'zbek madaniyatining hamma bosqichlarida hamroh bo'lib kelgan. Eng oddiy prinsiplari bir – biriga mutanosiblik, uyg'unlik, yo'sin va usullarini

ajoyib qayta – qayta takrorlanuvdir. Xalq naqqoshlari naqshlarning har bir detaliga alohida-alohida e'tibor berib, uning tabiiyligini yo'qotmaganlar, har bir element ustida puxta fikr yuritilgan. Har bir naqsh negizida ma'lum ramziy ma'nolar singdirilgan. XI – XII asrlarda O'zbekiston hududida arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, naqshlar ichida geometrik naqsh ko'p ishlatilgan. Bulardan biri girihlardir. Girih–forscha, chigal, tugun degan ma'noni beradi. Xandasiy naqsh–to'rtburchak, uchburchak va boshqa elementlardan tashkil topgan geometrik murakkab naqsh turi. Girih to'g'ri, egri va aralash chiziqlarga bo'ysundirilgan bo'lib, o'ziga xos shartlilikka ega. Bu naqsh turining keng tarqalishi bezak san'atining rivojlanishga yangidan–yangi imkoniyatlar ochib berdi.

Xonliklar davrida xalq amaliy san'ati ustalari Xiva, Qo'qon, Buxoro, Samarqand kabi shaharlarga yig'ila boshladilar. Ko'pincha Farg'ona va Buxoro naqqoshlari Samarqandga, Qo'qon, Marg'ilon ustalari Toshkentga kelib ko'pgina binolarni bezar edilar. Bu esa naqqoshlik maktablarining yanada rivojlanishiga, o'ziga xos kompozitsiyalarning yaratilishiga, ranglar majmuasini yanada boyitishda juda katta rol o'ynaydi. Lekin bu naqshlar bir-biriga o'xshasada, har bir naqqoshlik maktabi o'zining alohida kompozitsiyasi, ish uslubi, rang koloriti bilan ajralib turadi. Xiva naqshi Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Buxoro naqshidan tubdan farq qiladi. Xiva naqshida asosan zangori va yashil ranglar juda ko'p ishlatilgan. Islimiy naqsh kompozitsiyasida novda, marg'ula, shukufta, barg, no'xat, gul, oddiy oyguldan tashkil topadi. Ko'pincha yulduz hosil qiluvchi girihlar ishlatilib, orasi spiralsimon islmiy naqsh bilan boyitilgan. Xiva naqshlari umuman madoxilli naqshlar asosida tuziladi. Islimiy naqsh esa spiralsimon mayda qilib ishlanadi. Xiva naqqoshlik maktabining yorqin namoyandalari Abdulla Boltayev, Ro'zimat Masharipov, Odamboy Yoqubov, Eshmurod Sapayev va boshqalar. Xiva naqqoshlik san'ati uzoq tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Xiva naqqoshlik san'ati uslubidagi naqsh kompozitsiyalarda naqsh elementlarining qo'llanilishi, shakli, ma'nosi, naqsh kompozitsiyalarning tuzilishi va ulardagi rangshunoslik haqidagi ma'lumotlarni bosqichma-bosqich o'rganib borish maqsadga muvofiq.

I-bosqich. Biz bu bosqichda daslabki ko'nikmalarni ya'ni Xiva naqshlarida qo'llaniladigan naqsh elementlarining shakli, tuzilishi va ma'nolariga alohida e'tiborimizni qaratmog'imiz lozim. Hozirgi kungacha mutaxassislar tomonidan bildirilib kelinayotgan Xiva naqqoshlik san'ati uslubidagi naqsh kompozitsiyalarda yuqorida ko'rsatib o'tilgan naqqoshlik maktablari uslubidagi naqsh kompozitsiyalardan farqli o'laroq naqsh elementlari kam qo'llaniladi deyilgan ma'lumotlarni ham isbotlay olishimiz kerak. Chunki, boshqa viloyatlarda shakllangan naqqoshlik maktablari naqshlarida naqsh elementlarining qo'llanilishi shu viloyatning iqlim sharoiti, o'simlilik va hayvonot dunyosiga bog'liq ekanligi muhim ahamiyatga ega. Toshkent, Farg'ona, Namangan, Samarqand va Buxoro viloyatlarining iqlim

sharoiti, o'simlik va hayvonot dunyosi Xorazm viloyati iqlim sharoiti, o'simlik va hayvonot dunyosidan tubdan farq qiladi. Vohada o'sadigan o'simlik dunyosining kamligi va iqlim sharoiti yozda juda ham issiq, qishda esa juda xam sovuq ob-havo hukmronlik qilishi hammaga yaxshi ma'lum. ² Bu esa Xorazmda ijod qilgan naqqoshlarining tabiatdan o'zlashtirib va badiiylashtirib olib naqsh kompozitsiyalarida qo'llanilishi kerak bo'ladigan naqsh elementlarida o'z aksini topmasdan qolmagan. Shuningdek yana shunday alohida yaqqol ajralib turadigan qo'chqor shoxi, tugma (xorazm shevasida dugma), mehrob, bog'lamlar kabi naqsh elementlarini ham ko'p ko'rishimiz mumkin.

II-bosqich. Bu bosqichda naqsh elementlarining ketma-ket joylashtirib yaratilgan Xiva naqqoshlik san'ati uslubidagi naqsh kompozitsiyasining yaxlit tuzilishiga alohida e'tibor berishga qaratilmog'imiz lozim. Xiva uslubidagi naqsh kompozitsiyalar tuzilishiga ko'ra, asosan novda spiralsimon aylanib-aylanib murakkab naqshlar hosil qilishini yaqqol ko'ramiz. Bunday ko'rinishdagi islmiy naqshlar boshqa shaharlardagi naqqoshlik maktablari uslubidagi naqsh kompozitsiyalardan kuchli harakatlanuvchiligi bilan farq qiladi. Ko'pincha geometrik shakllardan tashkil topgan naqsh kompozitsiyalarda yulduz hosil qiluvchi girihlar chizilib, orasiga spiralsimon islmiy naqsh ishlatilib, gulli dirih naqsh kompozitsiyalari yaratilib kelingan. Xiva naqshlari umuman madoxilli naqshlar asosida tuziladi. Keyin esa islmiy naqsh spiralsimon mayda qilib ishlanadi. Samarqand va Buxoro naqqoshlik maktabi uslubidagi naqshlarda kuchli hashamdorlik va rangbaranglik yaqqol ko'zga tashlanishi bilan ajralib turadi.

III-bosqichda Xiva naqsh kompozitsiyalaridagi qo'llanilib kelinayotgan ranglar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini farqlay olishdek ma'suliyat turadi. Rangiga kelsak, naqshlarning umumiy rangi ko'pincha havorang koloritda ishlanadi. Ranglar kam ishlatilsada, o'ziga xos ko'rkamlikka ega. Xiva naqshida asosan zangori va yashil ranglar juda ko'p ishlatiladi. Xiva naqshlari butun yuzani geometrik naqshlar bilan to'ldirib moviy va yashil bo'yoq berishni yaxshi ko'rganlar.

Xiva me'morchiligining noyob namunalaridan biri Tosh-hovli saroyining ayvonlari shiftlarini bezashda qizil, sariq va qizg'aldoq ranglardan foydalanilganligiga misollar keltirishimiz mumkin. Xiva naqqoshlari o'z naqsh uslublarini o'zgartirmasdan naqsh kompozitsiyadagi ranglar jimjimadorligini va xashamdorligini ko'rsarishga xarakat qilib noyob asarlar yaratganlar. Tosh-hovli saroyining shift qismi Xiva naqqoshlik maktabi uslubida chizilgan naqsh kompozitsiyalarini pardoqlash bosqichi o'ziga xosligi bilan ham ajralib turadi. Xiva naqshlarida targ'il berib pardoshlash qo'llanilmay, barg, band va gullar chiziqlar bilan chegaralanib qo'yiladi. Toshkent

² Quvondiq Shonazarovich Ro'zmetov & Nigora Egamberganovna Ibadullayeva (2023). Xiva naqqoshlik san'ati uslubining o'ziga xos xususiyatlari.

uslubidagi naqsh kompozitsiyalarda esa pardozlash bosqichida gul, barg va bandlariga targʻil berib bezash keng qoʻllanilib kelinadi.

Xiva naqqoshlik sanʼati naqsh kompozitsiyalarida oddiy va murakkab shakldagi barglar, bargli gullar, madohil, qoʻchqor shoxi kabi naqsh elementlarining qoʻllanilishi, shakli, falsafiy maʼnosi, naqsh kompozitsiyalarning tuzilishi va ulardagi ranglarning respublikamizdagi boshqa naqqoshlik maktablardan juda koʻp farqli jihatlari bilan tanishib chiqdik. Xiva islmiy naqshlari boshqa naqqoshlik maktablari uslubidagi naqsh kompozitsiyalardan kuchli harakatlanuvchiligi va geometrik shakllardan tashkil topgan naqsh kompozitsiyalarda yulduz hosil qiluvchi girihlardan hosil boʻlishi, orasiga spiralsimon islmiy naqsh ishlatilib, gulli dirih naqsh kompozitsiyalari yaratilishi bilan xarakterlanadi. Xiva naqshlari umuman madohili naqshlar asosida tuziladi. Keyin esa islmiy naqshlar spiralsimon mayda qilib ishlanadi. Xiva naqshlarining rang jihatiga kelsak naqshlarning umumiy rangi koʻpincha havo rang koloritda ishlatiladi. Ranglar kam ishlatilsada, oʻziga xos koʻrkamlikka ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Булатов С. “Ўзбек халқ амалий безак санъати”. Тошкент. “Меҳнат” нашриёти 1991.
2. Baltayeva Xalima Torabayevna// Tasviriy sanʼat darslarida natyurmort janrini oʻrgatish metodikasini takomillashtirish // Taʼlim innovatsiyasi va integratsiyasi// Vol.14 №4 (2024) 4- toʻplam 85-90.
3. Sultanova G.O., Baltayeva X.T. Xorazm ganch oʻymakorligi sanʼati //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 3. – С. 756-761.
4. Балтаева Х. Т. талабаларни эстетик тарбиялаш ва касбий тайёрлашда декоратив-амалий санъатнинг ўрни //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 11. – С. 62-65.
5. Балтаева Х. Т. Тасвирий санъат ўқитувчисининг ўқувчилар таълим-тарбиясидаги ўрни //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 11. – С. 66-69.
6. Jumanazarovna, O. N. (2023). Oʻzbekiston tasviriy sanʼatida tarixiy janrda yaratilgan asarlar orqali talabalarning badiiy tasavvurlarini oʻstirish. PEDAGOGS jurnali, 33(2), 137-144.
7. Ibadullayeva, N. E., Ibadullayev, S. E., & Otaxanova, N. J. (2022). Tasviriy va amaliy sanʼat boʻyicha tashkil etiladigan togaraklarda oʻquvchilarni ijodkorlik faoliyatiga yoʻnaltirish va toʻgaraklar faoliyatini yoʻlga qoʻyishning uslubiy jihatlari. In Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования (pp. 65-69).
8. Quvondiq Shonazarovich Roʻzmetov & Nigora Egamberganovna Ibadullayeva (2023). Xiva naqqoshlik sanʼati uslubining oʻziga xos xususiyatlari. Oriental Art and Culture, 4 (2), 22-30.
9. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Tasviriy sanʼatning fanlararo aloqalar tizimidagi oʻrni. Pedagog's Journali, 31(1), 142–148.